



## RAM MOHAN ROYNING MA'RIFATPARVAR SIFATIDA SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHIT, TA'LIM VA HAYOTIY TAJRIBANING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20585403>

**Mannobova Munisa O'ktamjon qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

[munisamannobova18@gmail.com](mailto:munisamannobova18@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Ikramova I.R.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Hindiston uyg'onish davrining asoschisi Ram Mohan Royning ma'rifatparvarlik dunyoqarashi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etiladi. Mutafakkir voyaga yetgan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Hindistonning murakkab ijtimoiy-ma'naviy muhiti, xususan, diniy mutaasiblik, kasta tizimi va mustamlaka sharoiti tahlil qilinadi. Tadqiqotda Royning Patna va Varanasidagi an'anaviy Sharq (islom ilohiyoti, so'fiylik, sanskrit falsafasi) hamda G'arb ratsionalistik ta'lim tizimi sintezi asosida shakllangan ko'p tillilikka oid bilimlar salohiyati ochib berilgan. Shuningdek, uning Ost-Indiya kompaniyasidagi faoliyati va shaxsiy hayotiy tajribalari, xususan, sati odatiga qarshi kurashi ma'rifatparvarlik g'oyalarining amaliy poydevori sifatida ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ram Mohan Roy, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy muhit, Sharq-G'arb sintezi, Brahma Samaj, diniy mutaasiblik, ta'lim islohoti.*

**Аннотация.** *В данной статье исследуются социально-философские основы формирования просветительского мировоззрения Рама Мохана Роя, основателя эпохи индийского ренессанса. Анализируется сложная социально-духовная атмосфера Индии конца XVIII – начала XIX веков, в которой рос мыслитель, в частности, религиозный фанатизм, кастовая система и колониальные условия. В исследовании раскрывается потенциал мультилингвальных знаний Роя, сформировавшихся на основе синтеза традиционного Восточного (исламское богословие, суфизм, санскритская философия) образования в Патне и Варанаси и Западной рационалистической системы образования. Также рассматриваются его деятельность в Ост-Индской компании и личный жизненный опыт, в частности, борьба против обычая сати, как практический фундамент просветительских идей.*

**Ключевые слова:** *Рам Мохан Рой, просветительство, социальная среда, синтез Востока и Запада, Брахмо Самадж, религиозный фанатизм, реформа образования.*

**Abstract.** *This article explores the socio-philosophical foundations underlying the formation of the enlightenment worldview of Ram Mohan Roy, the father of the Indian*



*Renaissance. It analyzes the complex socio-spiritual environment of late 18th and early 19th-century India in which the thinker grew up, focusing particularly on religious bigotry, the caste system, and colonial conditions. The study highlights the potential of Roy's multilingual knowledge, which was shaped through a synthesis of traditional Eastern education (Islamic theology, Sufism, Sanskrit philosophy) in Patna and Varanasi, and the Western rationalist educational system. Furthermore, his career in the East India Company and his personal life experiences, notably his crusade against the practice of sati, are examined as the practical foundation of his enlightenment ideals.*

**Keywords:** *Ram Mohan Roy, enlightenment, social environment, East-West synthesis, Brahma Samaj, religious bigotry, educational reform.*

## KIRISH

XIX asr boshlaridan boshlab Hindistonda kechayotgan ijtimoiy-diniy va ma'rifiy jarayonlarda Ram Mohan Roy yetuk ma'rifatparvarlardan biri sifatida maydonga keldi. Ram Mohan Roy 1772-yil 22-mayda Bengaliyaning Radhangar hududida, brahman kastasiiga mansub oilada tug'ilgan. Ularning oilasi Ram Roy Band Upadhyay nomi bilan atalgan. Buning sababi esa Ram Mohan Royning bobosi Krishnachandra Banerji "Rai" (Roy) unvonini qabul qilgan Hindistonning yetuk shaxslari qatorida turgan. Uning ota-onasi va aka-ukalari ham brahmanga mansub bo'lsa-da, diniy jihatdan birozgina farqli e'tiqod shakllangan oila bo'lgan.

“उनकी पारिवारिक पृष्ठभूमि धार्मिक विभिन्नताओं से भरी हुई थी जहां उनके पिता रमाकान्तों राय वैष्णों धर्म के अनुयायी थे. वहीं उनकी माता तारा देवी एक शैव भक्त थी। उस समय यह बड़ा अजीब सा था।”<sup>1</sup> (Ularning

oilaviy muhitida diniy xilma-xillik mavjud edi: ularning otasi Ramakanton Ray Vaishnav dinining tarafdori bo'lgan, onasi Tara Devi esa Shaiv e'tiqodiga sodiq edi. O'sha paytda bu holat juda g'alati ko'rilar edi). Bilamizki, Hindistonda kasta tizimi mavjud ekan nikoh, ish faoliyati va hatto suhbatlashish ham mana shu kastaga ko'ra shakllanadi. Mohan Royning oilasida esa mana shunday an'analarga zid holatni, ya'ni bir din va ikki xil mazhabga e'tiqodni uchratamiz. Shunday taafvutli jarayonda ulg'aygan Roy haqida ayrim manbalarda diniy betaraflik tarafdori bo'lganligi qayd etilsa, ayrim manbalarda brahmanga e'tiqod qilgan deyiladi.

## TAHLIL VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda Ram Mohan Royning ma'rifatparvarlik dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir etgan omillar tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori mutafakkir yashagan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Hindistonning ijtimoiy-

<sup>1</sup> डॉ० संजय कुमार मिश्रा. ब्रिटिशकालीन नारी समाज सुधारको का योगदान (Doktor Sanjay Kumar Mishra. Britaniya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy islohotchilar harakati)/International Journal of

Humanites and Social Science Research, 2019, №5. – P. 60.



siyosiy hamda ma'naviy-madaniy muhitini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, kastachilik tizimi, diniy mutaassiblik, ayollar huquqlarining cheklanganligi va Britaniya mustamlakachilik siyosatining jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri Ram Mohan Roy qarashlarining shakllanish omillari sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot davomida tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayangan holda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-falsafiy hamda biografik metodlardan foydalanildi. Tarixiy-falsafiy metod yordamida Royning diniy-falsafiy qarashlari va ma'rifatparvarlik g'oyalari o'z davrining ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Biografik metod orqali uning oilaviy muhiti, Patna va Varanasidagi ta'lim jarayoni, arab, fors, sanskrit hamda ingliz tillarini o'zlashtirishi natijasida shakllangan salohiyati o'rganildi. Sharqning diniy-falsafiy merosi bilan G'arb ma'rifatparvarligi g'oyalari o'zaro ta'sir va uyg'unlik masalalari yoritishda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Kichikligida sanskrit maktabida tahsil olgan Ram Mohan Roy dastlab asosiy diniy manbalar, Vedalar va Upanishadlar bilan tanishib chiqadi. Keyinchalik esa Panta shahrida bir necha yillar davomida yashagan ma'rifatparvar arab va fors kabi tillarni mukammal darajada o'rganadi. Ana shu davrda Patna shahri islom ta'limi markazi bo'lgan hududlardan hisoblangan. Bu ikki tilni

bilish orqali Islom ilohiyotshunosligi, Qur'onni to'laqonli o'qib-o'rganish, arab dunyosi yo'nalishlar haqida, xususan, Mutaziylarning ratsionallikka doir qarashlarini tadqiq etishga erishadi. Shu bilan bir qatorda G'arb faylasuflari Aristotel va Platonning asarlarini arab tilidagi tarjimalarini o'qigan. Mohan Royning yaqin do'stlaridan biri Uilyam Adam uning bolalik davridagi dunyoqarashi haqida quyidagicha fikrlarini keltirib o'tadi: "U yoshlik davridayoq diniy ruhda tarbiyalangan va dindorlikka moyil bo'lgan ko'rinadi. O'n to'rt yoshida u Sannyasi yoki rohib sifatida hayot kechirish maqsadida dunyodan chekinishni niyat qilgan, biroq onasining iltijolari tufayli bu qaroridan qaytgan"<sup>2</sup>. Mohan Royning onasi uni diniy sohaning vakili bo'lishini xohlamagan. Shu tufayli Roy bu sohadan voz kichadi, ammo diniy manbalar va diniy dunyoqarashga oid barcha ma'lumotlarni o'rganishdan bosh tortmaydi.

O'n olti yoshida Patnadan o'zining qaytgan Ram Mohan Roy jamiyatdagi amal qilinayotgan an'analarga tanqidiy fikrlar berishni boshlaydi. "Taxminan o'n olti yoshimda men hindlarning butparastlik tizimining haqiqiyligini shubha ostiga qo'yadigan qo'lyozma yozdim"<sup>3</sup>. Ram Mohan Roy tanqidiy yondashuvlarini bayon etgan kichik bir asar ham yozadi. "U Vedalarda bayon

<sup>2</sup> Hem Chandra Sarkar. The life and letters of Raja Rammohun Roy. – Calcutta, 1914. – P. 5.

<sup>3</sup> Saumyendranath Tafore. Raja Rammohun Roy. – New Dehli: Sahitya Akademi, 1966. – P. 9.



etilgan din ta'limotiga zid bo'lgan butparastlikni qoralovchi asar yozdi"<sup>4</sup>. Ushbu asarning nomi "Tuhfat ul-Muvahiddin" deb nomlangan va asar orqali Mohan Roy hindlarning butparastlik tizimining asosli ekanligini shubha ostiga qo'yganligi sababli ilk norozilik otasi tarafidan bildiriladi. Negaki, Mohan Royning otasi bu asarni muqaddima qismi va qolgan asosiy qismlari arab va fors tillarida yozilganligi bois unga qarshi turadi. Shuning otasi brahman kastasiga mansub, dindor inson bo'lganligi sababli Royning bu qarashlarini qoralaydi. Otasining qattiq noroziligiga duchor bo'lgan Ram Mohan Roy o'z uyini tark etishga majbur bo'ladi va uning uyini tark etishi hind diyorining diniy qadriyatlarni o'rganish, boshqa dinlar bilan qiyoslash imkoniyatini bergan. Uning quvg'inlikdan so'ng borgan ilk manzili Tibet hududlari bo'lgan. U yerda ham buddizmga asoslanib butparastlikka sig'inib yashovchi jamiyatni ko'radi va ular haqida tanqidiy yondashuvlarni beradi. "U o'sha mamlakatda ikki yoki uch yil yashadi va Lamaga sig'inuvchilarning ta'limotini – ya'ni tirik insonni soxta iloh, dunyoning yaratuvchisi va saqlovchisi deb bilish haqidagi aqidani rad etganligi sababli ko'pincha ularning g'azabini

qo'zg'atdi"<sup>5</sup>. Tibetda yashash mobaynida jamiyatning madaniyatini yetarlicha o'rgangan Mohan Roy bajarilayotgan har bir odatni hech bir manbada keltirilmaganligini biladi va "...u butparastlikni tanqid qilgan va Vedalardan iqtiboslar bilan o'z nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlagan"<sup>6</sup>. Tibet Lamalarining noroziligini uyg'otgan bu qarashlar ushbu hududni tark etishga majbur etadi.

Britaniya mustamlakachiligi siyosati hukm surayotgan davrda jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'lgan Ram Mohan Royning oilasida vaziyat boshqacha tus olgan edi. "Yigirma yoshga yetganimda, otam meni yana huzuriga chorlab, o'z marhamati va e'tiborini qayta tikladi. Shundan so'ng men ilk bor yevropaliklarni ko'rdim va ular bilan muloqot qila boshladim; ko'p o'tmay ularning qonunlari hamda davlat boshqaruvi shakli bilan qoniqarli darajada tanishib oldim"<sup>7</sup>. Otasining so'nggi kunlarida uning yonida bo'lgan Roy hukumatning bir qancha vakillari bilan yaqindan suhbatda bo'ladi. natijada esa ingliz siyosatshunoslarining siyosiy qarashlarini o'rganadi va ular haqidagi noto'g'ri fikrlarini o'zgartiradi. Ya'ni, Britaniya hukumatining siyosiy ta'qiqlarini yoki mustamlakaga aylanib qolgan vatanidan voz kechib ularni qo'llab-quvvatlash emas, aksincha ularda

<sup>4</sup> S.D.Collet. Raja Ram Mohan Roy: His Life, Writings and Speeches. – Madras: G.A.Natesan and Co., 1925. – P. 4.

<sup>5</sup> Hem Chandra Sarkar, The life and letters of Raja Rammohun Roy. – Calcutta, 1914. – P. 7.

<sup>6</sup> Dr.Ms.S.M.Vimala. Raja Ram Mohan Roy – father of modern India//International Journal of Recent Research Aspects, 2018, April. – P. 710.

<sup>7</sup> Birinchidagi manba. – P. 250.



rivojlanish, zamonaviy bilimlarni egallash va dunyoning bir qancha mamlakatlari bilan yaqindan aloqada bo'lish imkoniyati borligi tushunadi. O'z vatanida ham diniy dunyoqarash bilan cheklanib yashab hayotining eng yaxshi damlarini shunchaki o'tkazib yuborish emas, yanada uni kengaytirish, ilm olish, chetga chiqish, o'sib borish mumkinligini asoslashga harakat qiladi. yoshlarga ta'lim berish, zamonaviy maktablar tashkil etish, til o'rgatishga bo'lgan qiziqshni orttirish zarurligini biladi. Diniy dunyoqarash asosida shakllangan tafakkur insonlarda qo'rquv hissini berishi va ularni harakatdan to'xtatishini anglab yetadi.

Jamiyatning yana bir an'anaga aylangan, ammo hech qanday amal hisoblanmagan beva ayollarni yoqish marosimi "sati" ning borligi Royning ma'rifatparvarlik harakatlarini yana bir yechim topilishi zarur bo'lgan qismi edi. Uning diniy manbalarni tanishi, Vedalar va Upanishadlarning asl holatida o'qiganligi o'z qarashlarining to'g'ri ekanligini asoslab beradi. Roy bu amaliyotni birinchi marotaba akasi vafot etganda uning beva qolgan ayolini ham qo'shib olovda yoqqanligida ko'rgan edi. Katta bo'lib ulg'aygach bu amallarga chek qo'yilishi kerakligini tushunib yetadi. Mohan Royning harakatlari besamar ketmaydi. Islohot jarayonlari davomida u satini bekor qilishga erishadi.

## XULOSA

Ram Mohan Royning ma'rifatparvarlik dunyoqarashi shakllanishining nazariy asoslari uning

hayoti kechgan davrning ijtimoiy-ma'naviy voqeliklari, ko'p qirrali ta'lim tizimi va amaliy hayotiy tajribasi dialektik birligida namoyon bo'ladi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Hindiston ijtimoiy hayoti chuqur inqiroz, diniy mutaasiblik, tabaqalanish va Britaniya Ost-Indiya kompaniyasining mustamlakachilik tazyiqi ostida qolgan edi. Bunday murakkab tarixiy sharoit yosh mutafakkir ongida an'anaviy jamiyatning turg'un qoliplariga nisbatan reaksiyon isyon va islohotchilik ghtiyojini keltirib chiqardi. Roy bu muhitda shunchaki kuzatuvchi emas, balki ijtimoiy determinizm qonuniyatlariga tayanib, mavjud tizimni funksional o'zgartirishga intilgan transformator sifatida namoyon bo'ldi. Uning ma'rifatparvarlik konsepsiyasi Sharq va G'arb intellektual an'alarining o'zaro sinteziga asoslangan bo'lib, bu jarayonda uning poliglotik salohiyati hal qiluvchi rol o'ynadi. Patna va Varanasidagi an'anaviy ta'lim tizimi doirasida arab va fors tillarini mukammal egallashi unga islom ilohiyoti, xususan, mo'taziliylar ratsionalizmi va so'fiylik falsafasi bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Bu esa keyinchalik hinduiylik tarkibidagi ko'pkhudolik va butparastlik elementlarini rad etib, monoteistik (tavhid) g'oyalarni ilgari surishiga nazariy zamin yaratdi. Shu bilan birga, sanskrit manbalarini bevosita o'rganishi natijasida u qadimgi Veda va Upanishadlar falsafasining asl insonparvarlik mohiyatini keyingi



davrlarda paydo bo'lgan bid'atlardan ajratib ko'rsatishga erishdi.

Ushbu Sharqona diniy-falsafiy poydevor keyinchalik G'arb ratsionalizmi, Yevropa ma'rifatparvarligi va ingliz utilitarizmi g'oyalari bilan boyitildi. Lotin, yunon va ingliz tillari orqali Jon Lokk, Volter va fransuz burjua inqilobi mutafakkirlarining erkinlik, tenglik va tabiiy huquqlar to'g'risidagi konsepsiyalarini o'zlashtirgan Roy, ularni Hindiston zaminidagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga moslashtirdi. Bu jarayon shunchaki mexanik eklektizm emas, balki chuqur madaniyatlara mulohazalar va o'ziga xos translatsionik sintez xarakteriga ega edi. Mutafakkir falsafasining o'ziga xosligi shundaki, uning g'oyaviy qarashlari sof nazariy xarakterda qolib ketmasdan, hayotiy tajriba silsilasida yanada chiniqdi va amaliy yo'nalish kasb etdi. Ost-Indiya kompaniyasidagi xizmat faoliyati unga

G'arb davlat boshqaruvi, qonunchilik tizimi va eng muhimi, matbuotning ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi qudratli kuchi bilan bevosita tanishish imkonini berdi. U tushundiki, jamiyatni ma'naviy inqirozdan qutqarish uchun matbuot erkinligi va dunyoviy ta'lim tizimi eng samarali vositadir. Bundan tashqari, Royning shaxsiy hayotidagi fojialar, ayniqsa, o'z yaqinlarining an'anaviy naturalistik odat – *sati* (ayollarni erining olovida kuydirish) marosimi qurboniga aylanishi uning intellektual qarashlarini keskin gumanistik harakatga aylantirdi. Natijada uning faoliyati diniy-ma'rifiy islohotchilikdan umummilliy modernizatsiya darajasiga ko'tarildi. Xulosa qilib aytganda, Ram Mohan Roy fenomenining nazariy asosi – davr taqozosi bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy muhit zarurati, ko'p madaniyatli fundamental ta'lim va empirik hayotiy xulosalarning qonuniy integratsiyalashuvi natijasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. डॉ० संजय कुमार मिश्रा. ब्रिटिशकालीन नारी समाज सुधारको का योगदान (Doktor Sanjay Kumar Mishra. Britaniya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy islohotchilar harakati)//International Journal of Humanites and Social Science Research, 2019, №5. – P. 60-66.
2. Hem Chandra Sarkar, M.A. The life and letters of Raja Rammohun Roy. – Calcutta, 1914. – 278 p.
3. S.D.Collet. Raja Ram Mohan Roy: His Life, Writings and Speeches. – Madras: G.A. Natesan and Co., 1925. – 600 p.
4. Dr. Ms. S.M. Vimala. Raja Ram Mohan Roy – father of modern India//International journal of recent research aspects, 2018, Special Issue: Conscientious computing technologies, April. – P. 710-713.
5. Saumyendranath Tafore. Raja Rammohun Roy. – New Dehli: Sahitya Akademi, 1966. – 63 p.